

O'zbekiston yoshlari forumida fizikadan qiziqarli ma'ruba

Ma'lumki, joriy yil 29-30-jyun kunlari Toshkent Botanika bog'ida ilk bor O'zbekiston yoshlari va talabalari forumi o'tkazildi.

Mazkur forum doirasida tashkil etilgan Ilmiy munozaralar hududida "Olim bilan suhbat" dasturi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti direktori, professor Xusniddin Olimov "Yuqori energiyalar fizikasi: yadrolardan olamgacha" mavzusida bilimga qiziqqon yoshlar - respublikamizning turli viloyatlaridan kelgan iqtidorli yuqori sinf o'quvchilari va talabalarga ma'ruba qildi.



Ma'ruzada hozirgi material Olamning juda kichik hajmdagi o'ta zich energiyadan paydo bo'lishiga olib kelgan "Katta Portlash" jarayoni haqida, energiyaning materiyaga o'tishi, proton, neytron, elektron, yadro, atom va molekulalarning vujudga kelishi hamda Olamda hayot boshlanishi haqida qiziqarli va tushunarli tilda bayon etildi. Shuningdek, Yerimizga tushuvchi Quyosh energiyasi undagi qanday jarayonlarda hosil bo'lishi, nimaga Quyosh tabiiy termoyadroviy reaktor deb ataladi, nimaga Quyosh energiyasiz Yerda hayot bo'imasligi kabi savollarga javob berildi. Shveytsariyadagi eng yirik Katta adron kollayderida deyarli yorug'lik tezligidagi yuqori energiyali og'ir ionlar to'qnashganda "Katta portlashdan" bir necha mikrosekund o'tgach vujudga kelgan juda issiq va zich kvark-glyuon plazma holatidagi materiya hosil bo'lishi, paydo bo'lgan kvark-glyuon plazmaning temperaturasi Quyosh markazidagi temperaturadan deyarli yuz ming barobar yuqori bo'lishi va boshqa qiziqarli faktlar haqida aytib o'tildi. Shuningdek, atom

elektrostantsiyalarida, issiqlik va gidroelektrostantsiyalarga qaraganda, elektr energiyasini olish samaraliroq bo'lishi, jumladan atom elektrostantsiyasida bir gramm uran yoqilg'isidan olingan elektr energiyasi 60 ming aholiga ega kichik bir shaharchani bir soat mobaynida yoritilishiga yetarli bo'lishi haqida tushuntirildi.

Mazkur tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lif sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-sonli qarorida iqtidorli yoshlarni fizika yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarga jalb qilishga oid belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida amalga oshirildi.